NAMANGAN SHAHRINING O‘SISH QUTBI SIFATIDA SHAKLLANISHINING IQTISODIY-GEOGRAFIK OMILLARI

Usmonova Yulduz Avazbek qizi
Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti
yulyausmonova@gmail.com +998939525677
ORCID ID 0009-0006-1592-6932

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Namangan shahrining o‘sish qutbi sifatida shakllanishiga ta’sir etuvchi iqtisodiy-geografik omillar hamda uning hududiy rivojlanishdagi roli tahlil qilingan. Tadqiqotda 2010–2025-yillar davomida shaharning demografik va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dinamikasi, viloyat iqtisodiyotidagi ulushi hamda asosiy iqtisodiy faoliyat turlarining nisbiy konsentratsiyasi o‘rganilgan. Shuningdek, Namangan shahrining atrof hududlarga ta’siri yoritilgan. Aniqlangan natijalar Namangan shahrida iqtisodiy faoliyatning yuqori darajada konsentratsiyalashuvi va uning atrof hududlar bilan funksional aloqalarining kuchayishi o‘sish qutbi sifatidagi shakllanish jarayonining muhim belgilaridan ekanligini ko‘rsatadi.*

Kalit so’zlar: *iqtisodiy-geografik rivojlanish, o’sish qutbi, nisbiy konsentratsiya koeffitsiyenti, suburban hududlar.*

Kirish va mavzuning dolzarbligi. XXI asrda urbanizatsiya jarayonlarining jadallashuvi, iqtisodiy faoliyatning yirik shaharlar atrofida konsentratsiyalashuvi hamda hududiy rivojlanishdagi tafovutlarning mavjudligi shaharlarning mintaqaviy taraqqiyotdagi o‘rnini qayta baholash zaruratini yuzaga keltirmoqda. Zamonaviy iqtisodiy geografiya va geourbanistika tadqiqotlarida shaharlar endilikda faqat ma’muriy yoki demografik birlik sifatida emas, balki iqtisodiy o‘sishni shakllantiruvchi, innovatsiyalarni tarqatuvchi, mehnat resurslarini jalb qiluvchi hamda atrof hududlar rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi murakkab hududiy tizim sifatida qaralmoqda. Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, yirik va o‘rta shaharlarning o‘sish qutbi sifatida rivojlanishi hududiy iqtisodiy samaradorlikni oshirish, investitsiyalarni jalb etish, infratuzilmani rivojlantirish hamda mintaqalararo tafovutlarni qisqartirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, aholi zich joylashgan va iqtisodiy faollik yuqori bo‘lgan hududlarda shaharlarning transformatsion roli yanada kuchli namoyon bo‘ladi.

So‘nggi yillarda iqtisodiy islohotlar, hududlarni kompleks rivojlantirish siyosati, infratuzilma modernizatsiyasi va investitsion faollikning ortishi yirik shaharlarning mintaqaviy iqtisodiyotdagi ahamiyatini sezilarli ravishda kuchaytirdi. Farg‘ona vodiysining yirik urban markazlaridan biri bo‘lgan Namangan shahri so‘nggi o‘n yillikda demografik o‘sish sur’atlari, iqtisodiy faollikning ortishi, xizmat ko‘rsatish tarmoqlarining kengayishi, transport va muhandislik infratuzilmasining rivojlanishi bilan ajralib turadi. Shahar viloyatning ma’muriy markazi sifatida iqtisodiy resurslar, mehnat salohiyati va ijtimoiy xizmatlarning yuqori darajada konsentratsiyalashgan hududi hisoblanadi. Natijada, Namangan shahri nafaqat ichki rivojlanish markazi, balki atrof tumanlar bilan o‘zaro iqtisodiy va funksional bog‘liqlikni shakllantiruvchi hududiy markaz sifatida ham namoyon bo‘lmoqda.

Bugungi kunda Namangan viloyatining 2030-yilgacha bo‘lgan rivojlanish strategiyasida ham urbanizatsiya, transport, uy-joy qurilishi, xizmat ko‘rsatish, investitsiya va hududiy infratuzilmani rivojlantirishga katta e’tibor qaratilmoqda. “Namangan–2030” strategiyasida 2030-yilgacha urbanizatsiya darajasini yanada oshirish, har yili 9,5 ming xonadon qurish, shahar va tumanlarni jamoat transporti bilan qamrab olish hamda yo‘l infratuzilmasini kengaytirish kabi maqsadlar belgilangan. Mazkur strategik yo‘nalishlar Namangan hududida urbanizatsiya va iqtisodiy konsentratsiya jarayonlari kelgusida ham davom etishini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, shaharning intensiv rivojlanishi hududiy transformatsiya jarayonlarini ham tezlashtirmoqda. Xususan, yer foydalanish tarkibining o‘zgarishi, shahar hududining kengayishi, yangi turar-joy massivlari va iqtisodiy zonalarning shakllanishi, transport oqimlarining ortishi hamda markaz-periferiya munosabatlarining chuqurlashuvi Namangan shahrining o‘sish qutbi sifatidagi rolini ilmiy asosda tahlil qilishni talab etadi. Biroq mavjud tadqiqotlarda Namangan shahrining iqtisodiy-geografik rivojlanishi ko‘proq alohida yo‘nalishlarda o‘rganilgan bo‘lib, uning o‘sish qutbi sifatida shakllanish omillari va hududiy ta’sir mexanizmlari kompleks tarzda yetarli darajada tadqiq etilmagan.

Mazkur maqolaning maqsadi – Namangan shahrining o‘sish qutbi sifatida shakllanishiga ta’sir etuvchi iqtisodiy-geografik omillarni aniqlash, ularning hududiy rivojlanish jarayonlaridagi o‘rnini baholash hamda shaharning mintaqaviy transformatsiyadagi rolini ilmiy asoslashdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi **vazifalar** belgilandi:

- ✓ Namangan shahrining o‘sish qutbi sifatida shakllanishining nazariy-metodologik asoslarini o‘rganish;
- ✓ 2010–2025-yillar davomida Namangan shahrining demografik va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dinamikasini tahlil qilish hamda Namangan shahrining viloyat iqtisodiyotidagi o‘rnini aholi, sanoat ishlab chiqarishi, xizmatlar, investitsiyalar, chakana savdo va faol korxonalar ko‘rsatkichlari asosida aniqlash;
- ✓ asosiy iqtisodiy faoliyat turlarining shaharda nisbiy konsentratsiya koeffitsiyentini aniqlash;
- ✓ Namangan shahrining atrof hududlarga ta’sirini yoritib berish.

Mazkur tadqiqot natijalari Namangan shahrining hududiy rivojlanish mexanizmlarini chuqurroq tushunishga, shuningdek, shaharlarni strategik rejalashtirish va hududiy siyosatni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Mavzuning o’rganilganligi. Hududiy rivojlanish nazariyalarida “O‘sish qutbi” konsepsiyasi alohida o‘rin tutadi. “O’sish qutbi” nazariyasi Fransis Peru [5] tomonidan XX asr o’rtalarida ishlab chiqilgan bo’lib, ushbu nazariyaga ko‘ra, iqtisodiy rivojlanish hudud bo‘ylab bir xil kechmaydi, aksincha, ma’lum markazlarda ishlab chiqarish, kapital, aholi va xizmatlar jamlanishi natijasida rivojlanish markazlari shakllanadi hamda ularning ta’siri atrof hududlarga bosqichma-bosqich tarqaladi. Bunday markazlar hududiy transformatsiya, iqtisodiy integratsiya va urbanizatsiya jarayonlarining asosiy harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. Keyinchalik, ushbu g‘oya J.R. Byudvil [1] tomonidan geografik makon bilan bog‘lanib, rivojlanayotgan tarmoqlar va ishlab chiqarish faoliyatining muayyan shahar yoki hududda to‘planishi hamda uning atrof hududlarga iqtisodiy ta’sir ko‘rsatishi nuqtayi nazaridan rivojlantirilgan. Bundan tashqari, J.R.Lasuen [3], J.B.Par, N.M.Hansen, J.Fridmen kabi xorij olimlari o‘sish qutbi nazariyasini mintaqaviy rivojlanish va shaharlar tizimi bilan bog’lagan klassik nazariyalar asoschilari hisoblanadi.

Zamonaviy urbanistikada o‘sish qutbi nazariyasi F. Perru, J.R. Byudvil va J. R. Lasuenning klassik qarashlari asosida rivojlanib, “o‘sish qutbi” faqatgina iqtisodiy faollikning ma’lum markazda konsentratsiyalanishi va uning boshqa hududlarga ta’sir ko‘rsatishi emas, balki, shahar, aglomeratsiya, transport, iqtisodiy faoliyat, aholi, yerdan foydalanish va hududiy aloqalar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir sifatida ko’riladi. Hozirgi tadqiqotlarda P.Krugman

[2], J.Wang [11], C.Vlados va D.Chatzinikolaou [10] kabi olimlar o‘sish qutbini aglomeratsiya, klasterlashuv va hududiy rivojlanish jarayonlari bilan bog‘lab o‘rganmoqda.

O’zbekistonda O.B.Ata-Mirzayev**,** N.X.Mamatqulov**,** T.I.Raimov**,** X.S.Salimov, A.S.Soliyev [7], I.K.Yusupov, S.S.Zokirov, A.Sodikov, Y.Ahmadaliyev, N. Komilova, S.Tashtayeva [8], P.R.Qurbonov [6], R.Madrimov, hamda S.Ergashev tomonidan shaharlarning iqtisodiy markaz sifatidagi roli, ishlab chiqarishning hududiy konsentratsiyasi, shaharlar tizimi va o‘sish markazlari masalalari yoritilgan. Biroq, Namangan shahri misolida iqtisodiy-geografik rivojlanish omillari, hududiy transformatsiya jarayonlari va o‘sish qutbi sifatida shakllanish mexanizmlarining kompleks tahlili yetarli darajada yoritilmagan. Mazkur tadqiqot aynan ushbu ilmiy bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan.

Natijalar va ularning muhokamasi. Namangan shahrining o‘sish qutbi sifatida rivojlanishini baholashda birgina iqtisodiy o‘sish ko‘rsatkichlari emas, balki shahar rivojlanishining hududiy, funksional, demografik va infratuzilmaviy xususiyatlarini birgalikda tahlil qilish zarur.

Namangan shahri Farg‘ona vodiysining shimoliy qismida joylashgan bo‘lib, viloyatning ma’muriy, iqtisodiy va ijtimoiy markazi hisoblanadi. Shaharning iqtisodiy-geografik o’rnining qulayligi uni nafaqat viloyat ichki hududlari, balki butun vodiy iqtisodiy makonidagi muhim urbanistik tugunga aylantirgan. Shaharning iqtisodiy-geografik o‘rni faqat geografik joylashuvi bilan emas, balki aholi va mehnat resurslari konsentratsiyasi, transport-kommunikatsiya tarmoqlari bilan ta’minlanganlik darajasi, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish faoliyatining hududiy markazlashuvi hamda atrof hududlar bilan iqtisodiy-funksional aloqalari orqali namoyon bo‘ladi. Mazkur omillarning o‘zaro uyg‘unlashuvi Namangan shahrining viloyat va mintaqa miqyosidagi iqtisodiy ahamiyatini oshirib, uni hududiy rivojlanishning asosiy tayanch markazlaridan biriga aylantirgan (1-jadval).

1-jadval

Namangan shahrining o’sish qutbi sifatida shakllanishini tavsiflovchi asosiy ijtimoiy-iqtisodiy ko’rsatkichlar dinamikasi (2010 – 2025-yillar)

Ko’rsatkichlar	2010	2015	2020	2025	O'zgarish, marta
Aholi soni, ming kishi	441,3	484,9	626,1	713,4	1,6
Sanoat ishlab chiqarish hajmi, mlrd.so’m	368,5	1370,7	4356,5	11975,8	32,5
Investitsiyalar hajmi, mlrd.so’m	315,8	471,7	4440,0	19780,2	62,6
Xizmatlar hajmi, mlrd.so’m	432,5	1592,7	3565,8	12619,5	29,2
Faol korxonalar soni, birlikda	4914	6109	9337	7628	1,6
Uy-joy qurilishi, ming m2	36,5	47,0	138,2	143,0	4,0

Manbaa: Jadval O’zbekiston Milliy statistika qo’mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirildi [12]

2010–2025-yillar davomida shaharda aholi, sanoat ishlab chiqarishi, investitsiyalar, xizmatlar sohasi va faoliyat yuritayotgan korxonalar sonida sezilarli o‘zgarishlar kuzatilgan. Doimiy aholi soni 2010-yildagi 441,3 ming kishidan 2025-yilda 713,4 ming kishiga yetib, 1,6 barobarga oshgan. Aholi sonining qariyb 272 ming kishiga ko‘payishi shaharning mehnat resurslari, iste’mol bozori va xizmatlarga bo‘lgan talabining kengayishini ta’minlovchi muhim demografik omil sifatida namoyon bo‘ladi. Shaharlarning iqtisodiy-geografik rivojlanishida demografik omil eng muhim tarkibiy komponentlardan biri hisoblanadi. Alfred Marshallning aglomeratsion iqtisod nazariyasiga ko‘ra, aholi va iqtisodiy faoliyatning hududiy konsentratsiyasi korxonalar uchun mehnat bozori sig‘imining kengayishi, ishlab chiqarish xarajatlarining kamayishi hamda bilim va innovatsiyalar almashuvining tezlashishiga xizmat qiladi [4]. Shu sababli aholi zich joylashgan hududlarda iqtisodiy faoliyat samaradorligi yuqori bo‘ladi. Namangan shahrida ham aholi sonining ko‘pligi va mehnat resurslarining konsentratsiyalashuvi savdo, transport, moliyaviy xizmatlar, ta’lim va sog‘liqni saqlash kabi xizmat ko‘rsatish tarmoqlarining jadal rivojlanishiga zamin yaratmoqda. Shuningdek, yuqori demografik sig‘im ichki bozor hajmini kengaytiruvchi omil sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Aholi sonining ko‘pligi kundalik iste’mol tovarlari va xizmatlariga bo‘lgan talabni oshiradi. Natijada, yangi korxonalar va xizmat ko‘rsatish obyektlarining tashkil etilishi uchun qulay iqtisodiy muhit shakllanadi. Bu esa, o‘z navbatida, yangi ish o‘rinlarining yaratilishi va iqtisodiy faollikning yanada ortishiga xizmat qiladi.

Sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi o‘zgarish yanada yuqori sur’at bilan kechgan. Mazkur ko‘rsatkich 2010-yildagi 368,5 mlrd so‘mdan 2025-yilda 11 975,8 mlrd so‘mga yetib, 32,5 barobarga oshgan. Ayniqsa, 2015–2025-yillar oralig‘ida sanoat ishlab chiqarish hajmining keskin ortishi shaharda ishlab chiqarish funksiyasining kuchayganligini ko‘rsatadi. Sanoatning bunday jadal rivojlanishi yangi ishlab chiqarish maydonlari, ish o‘rinlari, infratuzilma va xizmatlarga bo‘lgan talabni shakllantirib, shaharning iqtisodiy konsentratsiya markazi sifatidagi mavqeini mustahkamlovchi omillardan biri bo‘lib xizmat qiladi.

Investitsiya oqimlarining 62,5 barobar oshishi shaharning iqtisodiy jozibadorligi, ishlab chiqarish va xizmatlar sohasini modernizatsiya qilish jarayonlari hamda yangi iqtisodiy faoliyat turlarining shakllanishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. O‘sish qutbi nuqtayi nazaridan investitsiyalarning yuqori konsentratsiyasi ayniqsa, muhim bo‘lib, kapital oqimlarining shaharda to‘planishi keyinchalik ishlab chiqarish, bandlik, infratuzilma va xizmatlar rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadi.

Faol korxonalar soni boshqa ko‘rsatkichlardan farqli dinamikani namoyon etgan. Ularning soni 2010-yildagi 4 914 tadan 2020-yilda 9 337 tagacha ko‘paygan bo‘lsa, 2025-yilda 7 628 tani tashkil etgan. Umumiy davr bo‘yicha ko‘rsatkich 1,6 barobar oshgan bo‘lsa-da, 2020–2025-yillarda faol korxonalar sonining qisqarishi iqtisodiy faoliyat tarkibida tarkibiy o‘zgarishlar yuz berganini ko‘rsatishi mumkin. Biroq mazkur ko‘rsatkichni sanoat, investitsiya va xizmatlar hajmidagi keskin o‘sish bilan birgalikda tahlil qilish lozim. Chunki korxonalar sonining kamayishi iqtisodiy faollikning mutlaq qisqarishini anglatmasligi mumkin; korxonalar hajmining yiriklashuvi, ishlab chiqarish samaradorligining ortishi yoki iqtisodiy faoliyat tarkibining o‘zgarishi ham bunday dinamikaga sabab bo‘lishi mumkin.

Uy-joy qurilishi hajmining 36,5 ming m² dan 143,0 ming m² gacha, ya’ni 291,8 foizga oshishi ham urbanizatsion bosimning kuchayganidan dalolat beradi [13]. Uy-joyga bo‘lgan talabning ortishi shahar markazidan periferiyaga qarab yangi turar-joy hududlarining shakllanishini rag‘batlantiradi.

Namangan shahrining o‘sish qutbi sifatida shakllanishini baholashda uning viloyat iqtisodiyotidagi o‘rni va alohida iqtisodiy faoliyat turlarining hududiy konsentratsiyasi muhim ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, 2025-yil ma’lumotlari asosida Namangan shahrining viloyatdagi aholi, sanoat ishlab chiqarishi, xizmatlar, investitsiyalar, chakana savdo va faol korxonalar bo‘yicha ulushi hamda nisbiy konsentratsiyasi (LQ) hisoblandi. Oddiy konsentratsiya ko‘rsatkichi shaharning viloyatdagi tegishli ko‘rsatkich bo‘yicha ulushini ifodalasa, LQ ushbu faoliyatning shaharda uning demografik salohiyatiga nisbatan qanchalik yuqori yoki past darajada jamlanganligini aniqlash imkonini beradi. Nisbiy konsentratsiya koeffitsiyenti quyiodagi formula asosida hisoblandi:

$$LQ=\frac{K_{sh}/K_v}{A_{sh}/A_v}$$

Bunda: LQ – nisbiy konsentratsiya koeffitsiyenti;

K_{sh} – muayyan iqtisodiy faoliyat ko‘rsatkichining Namangan shahridagi qiymati;

K_v – mazkur ko‘rsatkichning Namangan viloyatidagi qiymati;

A_{sh} - Namangan shahri aholisi soni;

A_v – Namangan viloyati aholisi soni.

2025-yil ma’lumotlariga ko‘ra, Namangan shahrida 713,4 ming kishi istiqomat qilib, viloyat aholisining 22,8 foizini tashkil etgan. Aholi bo‘yicha nisbiy konsentratsiya ko’rsatkichi 1,00 ga teng bo‘lib, bu ko‘rsatkich boshqa iqtisodiy faoliyatlarning shahardagi nisbiy konsentratsiyasini baholash uchun bazaviy qiymat sifatida qabul qilindi. Sanoat mahsulotlari hajmi bo’yicha nisbiy konsentratsiya koeffitsiyentini quyidagicha hisoblaymiz:

$$LQ=\frac{11975,8/40087,4}{713,4/3131,7}=1,31$$

Sanoat mahsulotining 29,9 foizi Namangan shahriga to‘g‘ri kelib, LQ 1,31 ni tashkil etdi. Bu sanoatning shaharda aholi ulushiga nisbatan 31 foiz yuqori darajada konsentratsiyalanganini ko‘rsatadi. Boshqa ko’rsatkichlar ham shu tartibda hisoblandi.

2-jadval

“Namangan shahrining viloyat ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlaridagi ulushi va nisbiy konsentratsiyasi (LQ)”

Ko'rsatkich	Namangan shahri	Namangan viloyati	Shahar ulushi, %	Nisbiy konsentratsiya (LQ)
Aholi (ming kishi)	713,4	3131,7	22,8	1,00
Sanoat mahsuloti (mlrd.so’m)	11975,8	40087,4	29,9	1,31
Xizmatlar hajmi (mlrd.so’m)	12 619,5	56 282,9	22,4	0,98
Investitsiyalar hajmi (mlrd.so’m)	19 780,2	61 125,3	32,4	1,42
Chakana savdo aylanmasi hajmi (mlrd.so’m)	11 055,5	29 577,1	37,4	1,64
Faol korxonalar soni (birlikda)	7628	23920	31,9	1,40

Manbaa: Jadval O’zbekiston Milliy statistika qo’mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirildi [12]

Investitsiyalar bo‘yicha shahar ulushi 32,4 foiz, LQ esa 1,42 ga teng bo‘lib, kapital oqimlarining nisbatan yuqori darajada shaharda jamlanganligini ifodalaydi. Mazkur konsentratsiya ishlab chiqarish quvvatlari, yangi ish o‘rinlari va infratuzilma rivojlanishini rag‘batlantiruvchi omil sifatida namoyon bo‘lishi mumkin. Eng yuqori nisbiy konsentratsiya chakana savdoda kuzatilib, shaharning viloyatdagi ulushi 37,4 foiz va LQ 1,64 ni tashkil etdi. Bu chakana savdo ulushi shaharning demografik ulushidan 64 foiz yuqori ekanligini ko‘rsatib, Namangan shahrining yirik savdo va iste’mol markazi sifatidagi funksiyasini ifodalaydi. Faol korxonalar bo‘yicha ham yuqori konsentratsiya qayd etilib, shahar ulushi 31,9 foiz, nisbiy konsentratsiya esa, 1,40 ni tashkil etdi. Bu tadbirkorlik va iqtisodiy faoliyat subyektlarining shaharda ko‘proq jamlanganligini ko‘rsatadi.

Xizmatlar hajmida shahar ulushi 22,4 foiz, LQ 0,98 ga teng bo‘lib, xizmatlar sohasi shaharning aholi ulushiga deyarli mutanosib rivojlanganini ko‘rsatadi. Umuman, LQ natijalari Namangan shahrida chakana savdo (1,64), investitsiyalar (1,42), faol korxonalar (1,40) va sanoat (1,31) bo‘yicha nisbiy konsentratsiya mavjudligini ko‘rsatadi. Bu shaharning ishlab chiqarish, kapital, savdo va tadbirkorlik funksiyalarini o‘zida jamlagan iqtisodiy markaz sifatidagi ichki salohiyatini tavsiflaydi. Biroq LQ ko‘rsatkichlari shaharning atrof hududlarga real ta’sirini bevosita ifodalamaydi. Shu sababli Namangan shahri va qo‘shni hududlar o‘rtasidagi mehnat, transport, migratsiya, savdo-xizmat va ishlab chiqarish aloqalarini tahlil qilish orqali aglomeratsion jarayonlarni baholash zarur.

Shahar aholisi, iqtisodiy faoliyati, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish tarmoqlarining yuqori darajada konsentratsiyalashuvi uni atrofdagi hududlarga iqtisodiy va ijtimoiy ta’sir ko‘rsatuvchi o‘sish qutbiga aylantirmoqda. Mazkur ta’sir, avvalo, shahar va unga tutash hududlar o‘rtasidagi mehnat, transport, xizmat ko‘rsatish va uy-joy munosabatlarining kuchayishi orqali namoyon bo‘ladi. Namangan shahrida ish o‘rinlari, savdo-xizmat ko‘rsatish obyektlari, ta’lim va tibbiyot muassasalarining jamlanishi shahar atrofidagi aholi punktlarining funksional jihatdan shaharga bog‘liqligini oshirmoqda. Natijada, suburban hududlardan Namangan shahriga kundalik mehnat, ta’lim, savdo va boshqa xizmatlar uchun qatnovlar kuchayadi. Bu jarayon shahar va uning atrofidagi hududlarni yagona funksional makon sifatida shakllantiruvchi asosiy omillardan biridir.

Shahar iqtisodiy salohiyatining ortishi uy-joyga bo‘lgan talabning kengayishiga ham olib keladi. Natijada shahar chekka hududlarida yangi turar-joy massivlari, savdo va xizmat ko‘rsatish obyektlari hamda transport infratuzilmasining rivojlanishi tezlashadi. Bunday jarayon suburbanizatsiyaning hududiy ko‘rinishi sifatida namoyon bo‘lib, ilgari qishloq xo‘jaligiga ixtisoslashgan yoki nisbatan past urbanizatsiyalashgan hududlarning funksional tarkibida o‘zgarishlarni yuzaga keltiradi. Shu bilan birga, Namangan shahrining o‘sish qutbi sifatidagi ta’siri faqat ijobiy natijalar bilan cheklanmaydi. Aholi va iqtisodiy faoliyatning shaharga yuqori darajada tortilishi transport oqimlarining ko‘payishi, yo‘l va kommunal infratuzilmaga yuklamaning ortishi, tartibsiz qurilish hamda qishloq xo‘jaligi yerlaridan foydalanish tarkibining o‘zgarishi kabi muammolarni ham yuzaga keltirishi mumkin.

2010–2025-yillarda iqtisodiy va ijtimoiy salohiyati oshishi bilan birga shahar maydoni ham sezilarli oshib borgan. 2010-yilda Namangan shahri hududi 101,5 km² ni tashkil qilgan, 2019-yilda Chortoq va Namangan tumanlaridan 57 ming aholi yashovchi qishloq joylari va 6,3 ming gektar yer maydonlari shahar hududiga qo’shilishi bilan shahar hududi 145,0 kv.km ga yetgan. 2020-yil sentyabr oyida Namangan shahrida Davlatobod tumani qayta tuzildi.

2021-yil 8-mayda hukumat qarori bilan Namangan shahri tarkibida Yangi Namangan tumani hokimligi tashkil etildi. Davlatobod va Yangi Namangan tumanlarining tashkil etilishi aholining tez o‘sishi va shahar hududining kengayishi bilan bog‘liq bo‘ldi. 2021-yilga kelib, Namangan shahar aholisi sonining keskin darajada ko’payishi natijasida shahar ichki tumanlarga ajratildi (Davlatobod, Yangi Namangan). 2022-yilda Davlatobod tumaniga chegaradosh bo’lgan To’raqo’rg’on tumani hududidan 472,4 gektar yer maydoni Davlatobod tumani tarkibiga o’tkazilib, uning hududi hozirgi paytda 183,6 km^2 ni tashkil etmoqda. Aholi va hududiy maydonning bir vaqtda kengayishi Namangan shahrining urbanizatsion jarayoni faqat ichki zichlashuv bilan cheklanmay, periferik hududlarni ham o‘zining funksional zonasiga tobora ko‘proq jalb etganini ko‘rsatadi [9].

Namangan shahrining o’sish qutbi sifatida atrof hududlarga ta’siri, avvalo, Davlatobod va Yangi Namangan hududlarida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Mazkur hududlarda aholi sonining jadal ko‘payishi, yangi turar joy massivlarining shakllanishi hamda qurilish jarayonlarining faollashuvi shahar ta’sir doirasining kengayib borayotganini ko‘rsatadi. Shuningdek, ishlab chiqarish, savdo-xizmat ko‘rsatish va ijtimoiy infratuzilma obyektlarining hududiy konsentratsiyalashuvi ushbu tumanlarning funksional jihatdan Namangan shahri bilan tobora chambarchas bog‘lanishiga olib kelmoqda.

Yangi Namangan tumanida ko’plab kichik sanoat zonalari tashkil qilindi. Tumanda faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlar soni 2026-yilda 2449 tani tashkil etdi. “Sohil” mahalla fuqarolar yig’inida 10 gektar maydonda tashkil etilgan “Taraqqiyot” kichik sanoat zonasida 202,5 mlrd so‘mlik 37 ta investitsiya loyihasining amalga oshirilishi hamda qariyb 4 mingta yangi ish o‘rnining yaratilishi hududning ishlab chiqarish funksiyasini sezilarli darajada kuchaytirmoqda. Davlatobod tumanidagi “Orzu” kichik sanoat zonasida esa to‘qimachilik yo‘nalishidagi korxonalar, jumladan, “Ideal texstil orzu” MChJning faoliyati shahar atrofida eksportga yo‘naltirilgan ishlab chiqarish va bandlik markazlarining shakllanayotganini ko‘rsatadi. Shuningdek, Davlatobod–To‘raqo‘rg‘on yo‘nalishida 85 gektarlik maxsus sanoat zonasi va logistika markazini tashkil etish rejalari hududning transport-logistika funksiyasini ham kuchaytirishga xizmat qiladi. Natijada, Namangan shahri atrofida sanoat, xizmat ko‘rsatish, bandlik va logistika funksiyalarining hududiy diffuziyasi kuchayib, Davlatobod va Yangi Namangan tumanlari shaharning iqtisodiy ta’sir doirasiga tobora chuqurroq integratsiyalashmoqda.

Namangan shahri o‘sish qutbi sifatida shakllanishi uning periferik hududlarida qurilish jarayonlarining jadallashuviga olib keldi. Xususan, Davlatobod va Yangi Namangan tumanlarida yangi turar joy massivlari, ko‘p qavatli uy-joylar, ijtimoiy infratuzilma obyektlari hamda xizmat ko‘rsatish shoxobchalarining barpo etilishi shaharning hududiy rivojlanish yo‘nalishlarini periferiyaga tomon kengaytirmoqda. 2025-yilda Namangan shahri hududida amalga oshirilgan qurilish ishlarining 1,03 trln. so‘mi Davlatobod va 590,8 mlrd so‘mi Yangi Namangan hissasiga to‘g‘ri kelgan. Natijada, mazkur hududlarda nafaqat qurilish faolligi, balki aholi joylashuvi, iqtisodiy faoliyat va infratuzilmaviy aloqalarning ham konsentratsiyalashuvi kuzatilmoqda.

Xulosa. Tadqiqot davomida quyidagi xulosalar kelib chiqdi: Tadqiqot natijalari F. Perruning o‘sish qutbi nazariyasida ilgari surilgan iqtisodiy faollikning muayyan markazlarda jamlanishi va uning atrof hududlarga ta’sir ko‘rsatishi tamoyiliga mos ravishda, Namangan

shahrida aholi, ishlab chiqarish, investitsiya va xizmatlar faoliyatining yuqori darajada konsentratsiyalashganini ko‘rsatdi.

1. Nisbiy konsentratsiya tahlili Namangan shahrida iqtisodiy faoliyatning aholiga nisbatan yuqori darajada jamlanganini ko‘rsatdi. Ayniqsa, savdo, investitsiya, tadbirkorlik va sanoat faoliyatining yuqori konsentratsiyasi shaharning ko‘p funksiyali iqtisodiy markaz sifatidagi mavqeyini mustahkamlaydi.
2. Shaharning o‘sish qutbi sifatidagi rivojlanishi hududiy kengayish bilan birga kechmoqda. Davlatobod, Yangi Namangan va qo‘shni tumanlarda urbanizatsiya hamda iqtisodiy faollikning kuchayishiga ta’sir ko‘rsatmoqda. Shaharda shakllangan ish o‘rinlari, sanoat, savdo-xizmat va infratuzilma obyektlarining rivojlanishi qo‘shni hududlarning shahar bilan mehnat, transport va xizmat ko’rsatish aloqalarini kuchaytirmoqda. Natijada, Namangan shahri ta’sir doirasida yangi turar-joy va ishlab chiqarish hududlari shakllanib, shahar atrofi hududlarining iqtisodiy va funksional jihatdan integratsiyalashuvi jadallashmoqda.

Shunday qilib, Namangan shahrining o‘sish qutbi sifatida shakllanishining asosiy omillari – aholining yuqori konsentratsiyasi, sanoat va xizmatlar rivoji, investitsion faollik, savdo funksiyasining kuchayishi, tadbirkorlik subyektlarining jamlanishi va hududiy kengayishdan iborat. Ushbu omillarning o‘zaro ta’siri Namangan shahrining Farg‘ona vodiysi shimoliy qismidagi muhim hududiy rivojlanish markazi sifatidagi mavqeyini mustahkamlamoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Boudeville J.R. *Problems of Regional Economic Planning*. Edinburgh: Edinburgh University Press. 1966, -P 192.
2. Krugman P. Increasing Returns and Economic Geography. Journal of Political Economy, 1991. 99(3), 483–499. DOI: 10.1086/261763.
3. Lasuen J. R. On Growth Poles. *Urban Studies*, 6(2), 1969, 137–161. https://doi.org/10.1080/00420986920080231
4. Marshall A. (1890). Principles of Economics. London: Macmillan and Co., Book IV, Chapter X, “Industrial Organization, continued. The Concentration of Specialized Industries in Particular Localities”. 754 p.
5. Perroux F. Note sur la notion de “pôle de croissance”. *Économie Appliquée*, 8(1–2), 1955.307–320 pp.
6. Qurbonov P.R. Janubiy O‘zbekistonda urbanizatsiya jarayonlarining hududiy tarkibini takomillashtirish: Geografiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2025.
7. Soliyev A.S., Tashtayeva S.K., Egamberdiyeva M.M. Shaharlar geografiyasi: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Innovatsiya Ziyo, 2020.
8. Tashtayeva S.K., Bahramova S. Shahar aglomeratsiyalari. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2022. – ISBN 978-9943-6539-8-6.
9. Usmonova Y.A., Jumaxanov Sh.Z., Namangan shahrining hududiy transformatsiyasi: tarixiy geografik tahlil // Geografiya ta'limini modernizatsiyalash sharoitida yuqori malakali pedagogik kadrlar tayyorlash muammolari: xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari, II tom. – Jizzax, 2026 (23–24-aprel).
10. Vlados C., & Chatzinikolaou, D. Growth Poles and Clusters: Are There Useful Analytical Complementarities? Business and Economic Research, 10(1), 155–175. DOI: 10.5296/ber.v10i1.16307. 2020.
11. Wang J., & Zheng, X. Industrial Agglomeration: Asymmetry of Regions and Trade Costs. *Review of Urban & Regional Development Studies*, 25(2), 61–78. DOI: 10.1111/rurd.12008. 2013.
12. O’zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo’mitasi, https://stat.uz/uz/
13. STATISTIKA integrallashgan aborot tizimi, https://siat.stat.uz/